

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 6



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
6-son
noyabr, 2025

November 2025
Volume 3
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston
agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Voynash Sergey Aleksandrovich - i.f.n. dotsent (Qozon Volga bo'yi (federal)
universiteti)*

*Pulyayeva Valentina Nikolayevna - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Morkovkin Dmitriy Yevgeniyevich - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Chupin Aleksandr Leonidovich - i.f.d., professor, (P.Lumumba nomidagi Rossiya
xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazarot
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d. dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Fintech kompaniyalarining tijorat banklariga raqobati: tahdidmi yoki imkoniyat?

Muhiddinova Iroda Farhod qizi, Axmedova Firuza Abdumajidovna

Конкуренция финтех-компаний с коммерческими банками: угроза или возможность?

Муҳиддинова Ирода Фарход қизи, Аҳмедова Фируза Абдумаджидовна

Competition of fintech companies against commercial banks: a threat or an opportunity?

Mukhiddinova Iroda Farkhod kyzy, Akhmedova Firuza Abdumadzhidovna

Received: November 2, 2025 Revised: November 5, 2025

■ Accepted: November 12, 2025 ■ Published Online: December 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada fintech kompaniyalarining tijorat banklariga nisbatan raqobati tahlil qilinadi. Zamonaviy moliyaviy va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida, fintech kompaniyalari banklarga yangi raqobat maydoni yaratmoqda. Ushbu raqobat banklar uchun tahdid sifatida ko'rilishi mumkin, chunki fintech kompaniyalari tezkor, arzon, qulay va innovatsion xizmatlar taklif qiladi. Biroq, bu raqobat banklar uchun imkoniyat ham bo'lishi mumkin. Ular o'z faoliyatini raqamlashtirish va xizmat sifatini oshirish yo'lida yangi strategiyalar ishlab chiqishga harakat qilishadi. Maqolada tijorat banklari hamda fintech kompaniyalari o'rtasidagi raqobatning ijobiy va salbiy tomonlari, shuningdek, ularning birgalikda ishlash istiqbollari ko'rib chiqiladi.
- **Kalit so'zlar:** Fintech kompaniyalari, tijorat banklari, raqamli texnologiyalar, bank xizmatlari, innovatsiya, moliyaviy xizmatlar.
- **Аннотация:** В данной статье анализируется конкуренция финтех-компаний с коммерческими банками. В результате развития современных финансовых и цифровых технологий финтех-компании создают новую конкурентную среду для банков. Эта конкуренция может рассматриваться как угроза для банков, поскольку финтех-компании предлагают быстрые, доступные, удобные и инновационные услуги. Однако эта конкуренция может также представлять собой и возможность для банков. Они стремятся разрабатывать новые стратегии цифровизации своей деятельности и повышения качества услуг. В статье рассматриваются положительные и отрицательные стороны конкуренции между коммерческими банками и финтех-компаниями, а также перспективы их сотрудничества.
- **Ключевые слова:** Финтех-компании, коммерческие банки, цифровые технологии, банковские услуги, инновации, финансовые услуги
- **Abstract:** This article analyzes the competition of fintech companies against commercial banks. As a result of the development of modern financial and digital technologies, fintech companies are creating a new competitive environment for banks. This competition can be seen as a threat to banks, as fintech companies offer fast, affordable,

convenient and innovative services. However, this competition can also be an opportunity for banks. They are trying to develop new strategies to digitize their activities and improve the quality of services. The article examines the positive and negative aspects of competition between commercial banks and fintech companies, as well as the prospects for their cooperation.

- **Keywords:** Fintech companies, commercial banks, digital technologies, banking services, innovation, financial services.

KIRISH

So'nggi yillarda bank tizimida texnologik va innovatsion bank xizmatlarning rivojlanishi moliyaviy xizmatlar sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, fintech (financial technology) kompaniyalari tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion mahsulot va xizmatlar an'anaviy tijorat banklari uchun yangi raqobatchilarni yuzaga keltirdi. Ular barcha moliyaviy tizimlarda ya'ni, to'lov tizimlari, kreditlash, investitsiya, moliyaviy maslahatlar berish va sug'urta sohalarida faoliyat yuritmoqda. Ushbu maqolada fintech kompaniyalarining tijorat banklariga nisbatan qanday ta'sir ko'rsatayotgani, bu jarayon banklar kelajagi uchun tahdidmi yoki imkoniyat ekanligi tahlil qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil usuli sifatida taqqoslovchi tahlil usuli, shuningdek, ikkinchi darajali manbalarni (maqolalar, banklar hisobotlari, tahliliy tadqiqotlar) o'rganish orqali tijorat banklari va fintech kompaniyalari o'rtasidagi raqobat raqamlarda tahlil qilindi. Bundan tashqari, ayrim yetakchi fintech kompaniyalarining faoliyati mamlakatimiz bank tizimida yetakchilik qilayotgan banklarning faoliyati bilan taqqoslab, misol tariqasida ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global fintech sanoati yangi bosqichga ko'tarilmoqda - bu keng qamrovli fintechlar sinfining oshishi, yangi texnologiyalar va biznes modellarining paydo bo'lishi (ayniqsa, AI) va daromadli o'sishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bilan belgilanadi. 2024 yil burilish nuqtasi bo'ldi, moliyalashtirish va baholash barqarorlashdi. Fintech daromadlari 2023 yildagi 13 foizdan o'tgan yilga nisbatan 21 foizga o'sgan va moliyaviy xizmatlar sektoridagi 6 foizlik o'sishni ortda qoldirgan.[1]

O'zbekistonda fintech sektori 70 dan ortiq kompaniya va 52 ta to'lov tashkiloti bilan ifodalanadi. O'zbekistonda KPMG hisobotiga ko'ra, elektron to'lovlar, POS moliyalashtirish va Buy Now, Pay Later (BNPL) xizmatlari tez o'sib bormoqda. Bu

tendensiyalar nafaqat iste'molchilar odatlarini, balki butun moliya sektorini ham tubdan o'zgartirmoqda.

O'zbekistonda 2022-2023 yillarda venchur investitsiyalarning 60 foizdan ortig'i fintech sektoriga yo'naltirilgan. Fintechning eng rivojlangan segmentlariga mobil banking, to'lovlar va pul o'tkazmalari hamda BNPL xizmatlari kiradi. Fintech bozorining asosiy tendensiyalari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Ekotizim rivojlanishi: O'zbekistonda elektron tijoratning o'sishi bilan mijozlarning aloqa nuqtalarining keng doirasini qamrab oluvchi super ilovalar yaratish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Ushbu super ilovalar bozorda xaridlardan tortib yetkazib berish xizmatlari va BNPL xizmatlarigacha bo'lgan xizmatlarni taklif qiladi. 2023 yilda Uzum kompaniyasi 13 milliondan ortiq mijozga ega bo'lgan turli xizmatlar, jumladan, to'lovlar, bank xizmatlari, elektron tijorat va yetkazib berish ekotizimini yaratdi. Ta'kidlash joizki, boshqa yirik ekotizimlar qatoriga Humans (virtual tarmoq operatori sifatida boshlangan) va Zood (ZoodPay elektron tijorat platformasi, ZoodMall bozori, ZoodShip yetkazib berish va logistika xizmati hamda raqamli bankni birlashtirgan) kiradi.

- Kriptovalyuta bozorining rivojlanishi: O'zbekistonda o'zining UzNEX kriptovalyuta birjasiga ega. Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (NAPM) doirasida kriptovalyuta muomalasi sohasida innovatsion mahsulotlarni sinovdan o'tkazish uchun "tartibga soluvchi sandbox" ishga tushirildi (ishtirokchilar barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod qilingan). Ushbu rejimda 2023 yilning yozida eng yirik banklardan biri "Kapitalbank" va UzNEX mamlakatdagi birinchi kriptovalyuta kartasini ishga tushirdi. Kriptokarta kriptovalyutani to'lov valyutasiga avtomatik konvertatsiya qilish imkonini beradi va butun dunyo bo'ylab to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. To'lov platformasi Mastercard tomonidan taqdim etiladi.

- O'zbekistonda jismoniy shaxslarga, kichik va o'rta korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi nobank moliya institutlari faol rivojlanmoqda. Etakchi o'yinchilar qatorida Uzum Bank, TBC, Anorbank va Multibank bor. 2027 yilga kelib nobanklar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarning umumiy hajmi 2022 yilga nisbatan 3 baravardan ortiq (639 million dollardan 2 milliard dollargacha) oshishi kutilmoqda.

Yuqori o'sish dinamikasiga qaramay, O'zbekistonda fintech biznesini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash


borasida hali ko'p ish qilish kerak. Qonunchilik bazasi turli texnologiyalarni (ochiq API kabilar), ma'lumotlarni himoya qilish va hokazolarni qo'llash kabi ko'plab masalalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Biroq, bir qator doimiy drayvlar va fundamental omillar kelgusi 5-7 yil ichida fintechning davomli dinamik o'sishini kutish ehtimoli yuqori. Ular orasida yosh va jadal o'sib borayotgan aholi, iqtisodiy o'sish va daromad darajasi, davom etayotgan raqamlashtirish, malakali kadrlar oqimi, xorijiy investitsiyalar bor.[2]

Fintech bozorining asosiy ko'rsatkichlari:

- POS Terminal To'lovlari: 2021-2023 yillar oralig'ida yillik o'sish ko'rsatkichi 50%.

- Iste'mol Kreditlari: 2020-2023 yillar oralig'ida 753 million AQSh dollaridan 3,419 million AQSh dollarigacha oshgan. 2023-2025 yillar oralig'ida 23 177 mlrd so'mdan 40 719 so'mgacha oshdi. 2025 yil II-choragi bo'yicha iste'mol kreditlari pasayish tendensiyasi ega bo'lib, -9%ni tashkil etgan.

- Elektron Tijorat Bozori: 2023-yilda 543 million AQSh dollariga yetdi, bu 75-95% yillik o'sishni bildiradi.



O'zbekistonda yetakchi bo'lgan uch asosiy Fintech kompaniyalarining har biri 2025 yilning I-choragida litsenziya asosida faoliyat yuritayotgan 36 ta tijorat bankining 23 tasidan ko'ra ko'proq foyda olgan. Eng yuqori foyda olgan to'lov tashkiloti Paynet AJ bo'lib, 2025 yil I-choragida 108,6 mlrd so'm miqdorida foyda ko'rgan, Click va Payme kompaniyalari esa o'z navbatida 73,2 mlrd so'm va 73,8 mlrd so'm miqdorida sof foyda olgan.

Yuqori o'sishga qaramay, O'zbekistonda fintech biznesini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash bo'yicha hali juda ko'p ishlar qilinishi lozim. Qonunchilik bazasi turli texnologiyalarni (ochiq API kabi), ma'lumotlarni himoya qilish va hokazolarni qo'llash kabi ko'plab masalalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Biroq, bir qator doimiy drayvlar va fundamental omillar kelgusi 5-7 yil ichida fintechning davomli dinamik o'sishini kutish ehtimoli yuqori. Ular orasida yosh va tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan aholi, iqtisodiy o'sish va daromad darajasi, davom etayotgan raqamlashtirish, malakali kadrlar oqimi, xorijiy investitsiyalar bor.[2]

Fintech kompaniyalar barqaror rivojlanishining tijorat banklari uchun asosiy xavflari quyidagilar bo'lishi mumkin;

1. Bozor ulushining kamayishi va mijozlarni yo'qotish xavfi, ya'ni ushbu kompaniyalar to'lovlar, kreditlar va elektron hamyonlar orqali banklarning asosiy xizmatlariga bevosita raqobat qilmoqda;

2. Tezkor innovatsiyalar orqali Fintech kompaniyalar zamonaviy texnologiyalarni tez joriy qilishi (super applar, BNPL, AI kredit skoringi) banklar uchun agressiv raqobat manbai bo'lib bormoqda;

3. Fintechlar xizmat haqlarini arzonroq yoki kamaytirgan (yoki nolga tenglashtirgan) holda banklar rentabelligini pasaytirib mijozlarni o'ziga jalb qiladi.

Shu bilan bir qatorda agar banklar innovatsion va ochiq bo'lsa bu kelgusida ular uchun imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Banklar muvaffaqiyatli fintech startaplarni sotib olish yoki ularga sarmoya kiritish orqali innovatsion o'sishni tezlashtirishi mumkin hamda ilgari yetib bormagan (yoshlik, diaspora, freelance) segmentlarga chiqishi mumkin.

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

Tashkilot	Daromad / Sof foyda (Q1–Q3 2024)	Tashkilot	Daromad / Sof foyda (Q1–Q4 2024)
Click	Daromad: 420.9 mlrd UZS; Sof foyda: 179.3 mlrd UZS	Uzmilliybank	1,72 trln so'm
Paynet	208.4 mlrd UZS	Hamkorbank	1,42 trln UZS
Payme	186.9 mlrd UZS	Sanoat Qurilish Bank	1,3 trln UZS
Uzum Nasiya	238.1 mlrd UZS	Kapitalbank	1,15 trln UZS
MyUzcard	78.1 mlrd UZS	Ipak Yo'li Bank	910,5 mlrd UZS
IT Unisoft Group	56 mlrd UZS	Orient Finance Bank	901,17 mlrd UZS
Alif Mobi	42.4 mlrd UZS	Trastbank	807,4 mlrd UZS
Uzcard operatori	9 oyda – 660.4 mlrd UZS daromad	KDB Bank	526,9 mlrd UZS

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024-yilda O'zbekiston banklarining sof foydasi deyarli ikki barobarga qisqargan, ya'ni, an'anaviy banklarning umumiy daromadi 2023-yilga nisbatan 43.7 % kamayib, 6.97 trln UZS (yoki 587 mln USD)ga tushgan. Biroq, ba'zi yirik banklar yaxshi daromad ko'rsatayotgan bo'lsa-da, 9 ta moliya instituti yilni zarar bilan yakunlagan. Joriy yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Singapur Markaziy bankining "Global Finance & Technology Network" (GFTN) tashkiloti o'rtasida o'zaro anglashuv Memorandumi imzolanishi fonida FinTech ekotizimini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va global tajribalarni tatbiq etishga qaratilgan keng qamrovli dasturni amalga oshirish uchun asos yaratildi.

Vujudga kelayotgan ushbu raqobat muhiti banklar uchun strategik choralar ko'rish zarurligini taqazo qiladi. Buning uchun, soddalashtirilgan mobil xizmatlarni rivojlantirish, startaplarga sarmoya kiritish yoki qo'shma loyihalar ochish, raqamli transformatsiyani tezlashtirish masalalari muhim omillar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

- Muhiddinova Iroda Farhod qizi, Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti / Мухиддинова Ирода Фарход

кызы, Ташкентский университет прикладных наук / Mukhiddinova Iroda Farkhod kyzy, Tashkent University of Applied Sciences

► muhiddinova.iroda@icloud.com

■ 0009-0007-8098-1716

- Axmedova Firuza Abdumajidovna, Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti / Ахмедова Фируза Абдумаджидовна, Ташкентский университет прикладных наук / Akhmedova Firuza Abdumajidovna Tashkent University of Applied Sciences

► feruzaaxmedova007@gmail.com

■ 0009-005-2410-4159

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Deepak Goyal, Inderpreet Batra, Alexander Paddington, Stefan Dab. "Fintech's Next Chapter: Scaled Winners and Emerging Disruptors", BCG(Boston Consulting Group)- JUNE 02, 2025y
- Konstantin Tserazov. "Fintech in Uzbekistan: Slow Start, Rapid Growth", Uzbekistan News.net 29.12.2023 yil
- www.cbu.uz
- www.spot.uz
- <http://nbu.uz>
- <http://www.kapitalbank.uz>